O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki AJ Navoiy viloyat Bosh boshqarmasida o‘tkazilgan yig‘ilish bayoni

2026 yil 27 fevral Navoiy shahri

Raislik kiluvchi: **Z.I.Adizov -** “O‘zmilliybank” AJ Navoiy viloyat Bosh boshqarmasi boshlig‘i v.b.

Qatnashdilar: “O‘zmilliybank” AJ Navoiy viloyat Bosh boshqarmasi, Navoiy Amaliyot BXM, “Yoshlik” va “X.Do‘stligi” BXO rahbarlari hamda xodimlar (ro‘yxat asosida). Qatnashchilar soni 125 nafar.

KUN TARTIBI:

1. “O‘zmilliybank” AJ Axborot va bank xavfsizligi departamentining 06.02.2026 yildagi №19-25-sonli ko‘rsatmasi muhokamasi
2. “O‘zmilliybank” AJ Axborot va bank xavfsizligi departamentining 23.02.2026 yildagi №19-34-sonli ko‘rsatmasi muhokamasi
3. “O‘zmilliybank” AJ tarkibiy bo‘linmalarida Korrupsiyaviy xavf xatarlarni baholash bo‘yicha tushunchalar berish

---

(Z.I.Adizov, F.I.Xolov, M.M.Xakimov)

Kun tartibidagi masala yuzasidan “O‘zmilliybank” AJ Navoiy viloyat Bosh boshqarmasi boshlig‘i Z.I.Adizov so‘zga chiqib, 2026 yil 9 fevraldan 20 fevral kuniga qadar viloyatimiz Bosh boshqarmasi va unga buysinuvchi BXM va BXO larda ish samaradorligini tahlili bo‘yicha audit tekshiruvchi o‘tkazilganligini, ushbu tekshiruv jarayonida bir qator kamchiliklar aniqlanganligini, shu sababli ish jarayonida yo‘l quyilayotgan xato va kamchiliklarni qisqa muddatlarda bartaraf etish lozimligini, xar bir xodimning shaxsiy mas’uliyati oshirilshi zarurligini ta’kidlab o‘tdi.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo‘limi boshlig‘i F.I.Xolov so‘zga chiqib, “O‘zmilliybank” AJ Axborot va bank xavfsizligi departamentining 06.02.2026 yildagi №19-25-sonli ko‘rsatmasi talablari bilan xodimlarni tanishtirib, ommaviy axborot vositalarida so‘nggi paytlarda xodimlar tomonidan mijozlarning pul mablag‘larini qalbaki xujjatlar orqali o‘zlashtirilgani, ushbu mablag‘lar esa qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarga sarflangani haqida ko‘plab xabarlar tarqalayotganligi, mazkur holatlar jamiyatda katta rezonans uyg‘otib, moliyaviy xavfsizlik, xizmat intizomi va ishonch masalalarini yanada dolzarb qilib quyayotganligi, bunday turdagi huquqbuzarliklarning yuzaga kelishida bir qator omillar sabab bo‘layotganligini aytib o‘tdi. Jumladan, xodimlarning huquqiy ong va mas’uliyat darajasining pastligi, joylarda nazorat tizimining yetarli darajada samarali ishlamasligi va nazoratga olinmaganligi, xodimlar faoliyati ustidan doimiy va tizimli monitoring yuqligi, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda

inson omilining yuqori bo'lishi, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarga qaramlikning kuchayib borayotgani, rahbarlar qo'l ostidagi xodimlarni ishdan tashqari vaqtda nima bilan shug'ullanayotganligi bo'yicha ma'lumotga ega emasligi kabi sabablarni sanab o'tib, mazkur holatlarni oldini olish maqsadida quyidagi vazifalar bajarilishi talab etilishini ta'kidladi. Xususan, xodimlar o'rtasida xuquqiy tushuntirish va ogohlantirish ishlarini samaradorligi oshirish, xodimlar faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib borish va xavfli holatlarni erta aniqlash, qalbaki xujjatlar va noqonuniy harakatlarni aniqlash bo'yicha profilaktik choralarni kuchaytirish, xuquqbuzarlik alomatlari aniqlanganda tegishli idoralarga o'z vaqtida axborot berish va barcha toifadagi rahbarlar qo'l ostidagi xodimlarni ishdan tashqari paytda nima bilan shug'ullanayotganligidan xabardor bo'lishi ta'kidlab o'tdi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo'limi boshlig'i F.I.Xolov so'zini davom ettirib, "O'zmilliybank" AJ Axborot va bank xavfsizligi departamentining 23.02.2026 yildagi №19/34-sonli ko'rsatmasi talablari bilan xodimlarni tanishtirib, bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda foydalanuvchilarning ma'lumotlarini o'g'irlashga qaratilgan zararli dasturlar (viruslar) soni ham keskin ortib borishi oqibatida kelgusida jiddiy salbiy oqibatlarga, jumladan ma'lumotlarning ommaviy oshkor bo'lishi, ish faoliyatining izdan chiqishi va moliyaviy yuqotishlarga olib kelishini oldini olish maqsadida qisqa muddat ichida qo'yidagi vazifalar amalga oshirishini, ya'ni, kompyuter va barcha tizimlarga kirish parollarini murakkab ko'rinishdagi parollarga almashtirish, standart parollardan foydalanmaslik, har qanday kirish parollarini kompyuter ish stolida saqlamaslik, jfaqatgina bank faoliyatiga tegishli bo'lgan litsenziyalangan dasturiy ta'minotlardan foydalanish, korporativ pochta manziliga kelgan barcha yangi xabarlarda keltirilgan veb manzillari fishing emasligi aniq bo'lmaganicha ochib yubormaslik (holat sodir bo'lsa Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo'limiga) xabar berish, ish faoliyatiga bog'liq bo'lmagan fayllarni ish kompyuterlarida saqlamaslik, veb-brauzerlardagi sokeysda saqlanayotgan tizimlarga kirish parollarini o'chirish va zudlik bilan yangilash choralarini ko'rish hamda almashtirilgan parollar avtomatik tarzda saqlanishiga yo'l qo'ymaslik, mas'ul xodimlar tomonidan barcha ishchi kompyuterlarga antivirus dasturi o'rnatilishi va oxirgi talqiniga yangilash ishlarini to'liq yakuniga yetkazish lozimligini aytib o'tdi.

Kun tartibidagi masala bo'yicha O'zmilliybank AJ Korrupsiyaga qarshi kurash va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi M.M.Hakimov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2025 yildagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyani olini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashirish to'g'risi"da №270-sonli Farmoni talablarini tushuntirib, korrupsiyaga qarshi kurashda korrupsion holatlarni barvaqt aniqlash, oldini olish ularni sabab shart-sharoitlarini oldini olish, bartaraf etish manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosobatlarini shakllantirishga asosiy etiborni qaratilishi lozimligini aytdi.

Davlatimiz rahbari ko'plab ma'ruza va chiqishlarida loqaydlik, beparvolik, poraxo'rlik, korrupsiya, soxtakorlik, mansab vakolatini suiste'mol qilishga qarshi kurash butun jamiyatning maqsadiga aylanishi kerakligi to'g'risida aytib, korrupsiya - shunday illatki, uni bir yoki ikki departament, tuzilma sa'y-harakati bilan

yo‘q qilib bo‘lmaydi. Qachonki, barcha xodimlarimiz, jamoa bo‘lib unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo‘q qilishga kirishilsagina ijobiy natijaga erishish mumkinligini aytib, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, bankda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatga erishish, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borilayotgan hozirgi davrda mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va madaniyati darajasiga nisbatan alohida talablar ishlab chiqish, qonunlarga hurmatsizlik qilgan mansabdor shaxslarga nisbatan qat’iy choralar ko‘rish, to‘g‘ri va adolatli qarorlar qabul qilinsa, fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklansa, ijtimoiy himoya kuchaytirilsa, xalqning jamiyatda adolat, haqiqat borligiga ishonchi ortadi. Uning aksi bo‘lsa, odamlar orasida norozilik va hukumatga nisbatan ishonchsizlik yuzaga kelishini aytib o‘tdi.

Bundan tashqari majlisda bank rahbari o‘rinbosarlari, bo‘lim va sektorlar raxbarlari so‘zga chiqib, kun tartibidagi mavzu yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishini ta’kidladilar.

Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo‘limi boshlig‘i **F.I.Xolov**

Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtish bo‘limi bosh mutaxassisi **M.M.Hakimov**

27.02.2026 йил куни Ўзмиллийбанк АЖ Навоий вилоят Бош Бошқармаси ва Навоий Амалиёт БХМ ходимлари билан ўтказилган йиғилиш жараёни